



UDK:316.77

*Bahodir ESHBEKOV,*

*O'zbekiston jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD*

*E-mail: bahodireshbekov727@gmail.com*

*Siyosiy fanlar doktori, professor F.Xatamov taqrizi asosida*

### SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA VA UNING SIYOSIY TAFAKKUR VA MADANIYATNI TAKOMILIDAGI O'RNI

Annotsatsiya

Ushbu maqolada siyosiy kommunikatsiya tushunchasi, uning zamonaviy siyosiy jarayonlardagi ahamiyati hamda siyosiy tafakkur va siyosiy madaniyatni rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Siyosiy axborot almashinuvi, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilik bilan muloqot siyosiy ongini shakllantirishda qanday omil bo'lib xizmat qilishi ilmiy asosda yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Siyosiy kommunikatsiya, siyosiy tafakkur, siyosiy madaniyat, siyosiy ong, jamoatchilik fikri, axborot texnologiyalari.

### POLITICAL COMMUNICATION AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF POLITICAL THOUGHT AND CULTURE

Annotation

This article analyzes the concept of political communication, its importance in modern political processes, and its role in the development of political thought and political culture. It sheds light on a scientific basis on how political information exchange, mass media, social networks, and public communication serve as factors in the formation of political consciousness.

**Key words:** Political communication, political thought, political culture, political consciousness, public opinion, information technologies.

### ПОЛИТИЧЕСКАЯ КОММУНИКАЦИЯ И ЕЁ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ МЫСЛИ И КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В статье анализируется понятие политической коммуникации, её значение в современных политических процессах и роль в развитии политической мысли и политической культуры. В статье на научной основе рассматривается, как обмен политической информацией, средства массовой информации, социальные сети и публичная коммуникация служат факторами формирования политического сознания.

**Ключевые слова:** Политическая коммуникация, политическая мысль, политическая культура, политическое сознание, общественное мнение, информационные технологии.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida siyosiy kommunikatsiya siyosiy tizimning ajralmas elementi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Siyosiy kommunikatsiya orqali davlat va jamiyat o'rtasida axborot almashinuvi, siyosiy g'oyalar targ'iboti hamda fuqarolarning siyosiy faolligi shakllanadi. Shu jihatdan, siyosiy kommunikatsiyani to'g'ri tashkil etish siyosiy tafakkur va siyosiy madaniyatni takomillashtirishda hal qiluvchi o'rinni egallaydi. OAV va AKT (axborot kommunikatsiya tarmoqlari) tushunchalari mantiqan bir ma'noga ega bo'lib, ular ikkalasi ham turli tizimlar o'rtasida aloqa bog'lash, bog'langan holda aloqa, muloqot olib borish ma'nosida qo'llaniladi. Ommaviy kommunikatsiyaning uzviy va favqulodda ko'rinishi bo'lgan, siyosiy kommunikatsiya, siyosiy munosabatlar va aloqalarda internet kommunikatsiyasi istiloh va tushunchalari tahlil qilinarkan, avvalo, kommunikatsiya atamasiga o'ziga qisqacha izoh berib o'tish joiz bo'ladi.

Kommunikatsiya (lot. communicatio — umumlashtiraman, bog'layman) — bu axborot almashish va bog'lanish jarayonidir. Uning tuzilishi va maqsadiga ko'ra bir necha xususiyatlari mavjud:

Kibernetik nuqtai nazardan, kommunikatsiya — bu axborot almashish jarayoni bo'lib, jismoniy va ijtimoiy shakllarda namoyon bo'ladi.

Jismoniy kommunikatsiya (aloqa) fazoda joylashgan nuqtalar, qurilmalar yoki insonlar o'rtasida axborot uzatishni o'z ichiga oladi. Texnik tizimlarda to'rt asosiy tur mavjud: "inson–inson", "inson–mashina", "mashina–inson", "mashina–mashina".

Ijtimoiy kommunikatsiya esa shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlar o'rtasida tabiiy til orqali axborot almashishni anglatadi. Bunda axborotni idrok etish, tushunish va munosabat qoidaloriga amal qilish muhim hisoblanadi.

Texnik va shahar infratuzilmasida kommunikatsiya suv, elektr, issiqlik va gaz ta'minoti kabi yer osti tarmoqlari, transport va aloqa yo'llarini anglatadi. Bunday tizimlar shahar hayotini uzluksiz ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Biologik nuqtai nazardan, hayvonlarda kommunikatsiya maxsus "signalli" usullar orqali amalga oshadi; har bir tur o'ziga xos belgilar tizimiga ega.

Siyosiy kommunikatsiya esa siyosiy institutlar va tizimlarni bog'lovchi vosita bo'lib, ular o'rtasidagi axborot almashinuvini ta'minlaydi. U siyosiy tizimning samarali ishlashiga va siyosiy jarayonlarning muvofiqligiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, jamiyat tafakkuri va aloqa vositalarining taraqqiyoti bilan kommunikatsiya ibtidoiy shakllardan tortib zamonaviy raqamli va kiber tizimlarga rivojlangan murakkab jarayondir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** “Siyosiy kommunikatsiya” atamasi hozirgi mazmunida yaqinda siyosatshunoslik terminologiyasida mustahkam o‘rin egalladi. Ushbu tushunchani birinchi bor XX asr boshlarida F. Ratsel qo‘llagan bo‘lib, u “siyosiy munosabatlarda axborot uzatish barcha kommunikatsion xizmatlarning eng muhimi” ekanligini ta’kidlagan. Siyosiy kommunikatsiya boshqa axborot jarayonlari kabi uch asosiy maqsadni ko‘zlaydi: axborot almashinuvi; fikr almashish; xatti-harakatning o‘zgarishi. Ular ichida eng muhimi — jamiyatdagi siyosiy xatti-harakatlarning shakllanishi va boshqaruv tizimiga ta’siridir. Shu bois, ommaviy axborot vositalari (OKV) siyosiy hokimiyatni amalga oshirish, mustahkamlash yoki egallash jarayonida strategik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Siyosiy kommunikatsiya nazariyasi qadimiy ildizlarga ega. Antik davrda Platon va Arastu siyosiy muloqotni jamiyat farovonligiga erishish vositasi sifatida ko‘rganlar. Platon miflarni ma’rifiy maqsadda “qayta yozish” zarurligini aytgan bo‘lsa, Arastu siyosiy faoliyatni “yaxshilik uchun muloqot” deb ta’riflagan. Sitseron esa siyosiy kommunikatsiyaga huquqiy tus bergan.

Sharq tafakkurida ham siyosiy kommunikatsiya muhim o‘rin tutgan. Nizomulmulk “Siyosatnoma” asarida hukmdor va xalq o‘rtasida uzluksiz axborot almashuvini ta’minlash zarurligini uqtiradi, shoh va xalq o‘rtasidagi muloqotga to‘sqinlik qiluvchi omillarni tanqid qiladi. Amir Temur davrida esa maxsus xabargirlar tizimi orqali mamlakatdagi ahvol haqida muntazam axborot to‘planib, davlat qarorlari shu asosda qabul qilingan.

Uyg‘onish davrida N. Makiavelli siyosiy ong va jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazish mexanizmlarini o‘rganib, siyosiy kommunikatsiyaning yangi bosqichiga asos soldi. Vaqt o‘tishi bilan G‘arb va Sharqda siyosiy jarayonlarning murakkablashuvi natijasida yangi kommunikatsiya vositalari va nazariy yondashuvlar shakllandi.

Shunday qilib, siyosiy kommunikatsiya qadimdan boshlab jamiyatni boshqarish, fuqarolar bilan muloqot o‘rnatish va hokimiyatni legitimlashtirishning muhim vositasi sifatida shakllanib kelgan.

G‘arb siyosiy tafakkurida ommaviy axborot vositalari masalasi J. Milton, Sh. Monteskyo va J. Mill kabi liberal-demokratik mutafakkirlar tomonidan davlat faoliyatini nazorat qilish vositasi sifatida talqin qilingan. Ularning g‘oyalari zamonaviy siyosiy kommunikatsiya konsepsiyasining shakllanishiga zamin yaratdi.

Kommunikatsiya kundalik hayotda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, manzillarni bog‘lovchi texnik vosita yoki ommaviy axborot uzatish tizimi sifatida tushuniladi. Gumanitar fanlarda esa u ijtimoiy o‘zaro ta’sir shakli bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki vositachilik orqali amalga oshadi. Ushbu tushuncha XX asr boshlarida texnologik taraqqiyot va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida keng qo‘llanila boshlandi.

Xorijiy tadqiqotlarda siyosiy kommunikatsiyaning uch asosiy shakli ajratiladi:

Ommaviy axborot vositalari orqali kommunikatsiya – bosma (matbuot, afishalar) va elektron (radio, TV, internet) kanallar yordamida;

Tashkiliy kommunikatsiya – siyosiy partiyalar, harakatlar va bosim guruhlari orqali hokimiyat va jamiyat o‘rtasida bog‘lovchi vosita sifatida;

Norasmiy kommunikatsiya – shaxsiy aloqalar, saylovlar, referendumlar kabi jarayonlarda ifodalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ingliz-amerikalik tadqiqotchilar ta’kidlashicha, siyosiy kommunikatsiya nafaqat so‘z va matn orqali, balki turli belgilar, ramzlar va signallar orqali ham amalga oshadi. Masalan, saylovda ishtirok etish, siyosiy ramzlardan

foydalanish yoki diplomatik harakatlarning o‘zi ham siyosiy muloqotning bir shaklidir.

Siyosiy kommunikatsiya siyosiy tizimda axborot aylanishini ta’minlab, jamoatchilik fikrini shakllantiradi, fuqarolarning manfaat va ehtiyojlarini siyosiy jarayonlarga yo‘naltiradi. U siyosiy faoliyatni tizimlashtiruvchi, unga ma’no beruvchi va siyosiy ijtimoiylashuvni ta’minlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Axborot jamiyatining shakllanishida inson hayotining barcha sohalarida axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) rolining ortishi asosiy omil hisoblanadi. M. Kastels ta’biri bilan aytganda, axborot texnologiyalari yangi texnologik paradigma asosida moddiy madaniyatni qayta shakllantirmoqda. U. Martin esa “axborot jamiyati”ni rivojlangan sanoat jamiyatining yangi bosqichi deb biladi va uning markazida texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy mezonlar turishini ta’kidlaydi.

Texnologik mezon sifatida AKTning ishlab chiqarish, ta’lim va boshqaruv tizimlariga keng joriy etilishi, ijtimoiy mezon sifatida esa axborotga erkin kirish imkoniyati va “axboriy ong” shakllanishi ko‘rsatiladi. Siyosat sohasida axborot olish va tarqatish erkinligi fuqarolik faolligini oshiradi, jamiyatda konsensusga erishishga xizmat qiladi. Internet va “elektron hukumat” tizimlari demokratik boshqaruvning yangi mexanizmlarini yaratmoqda.

D. Makkuel fikricha, siyosiy kommunikatsiya madaniyat va qadriyatlariga tayanmog‘i, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashi, milliy va diniy birlashuvni qo‘llab-quvvatlashi lozim. G.V. Pushkareva siyosiy axborot uzatishning to‘rtta asosiy kanalini ajratadi:

Rasmiy – davlat va siyosiy tashkilotlardan chiqadigan axborot;

Shaxsiy – siyosatchilar va rahbarlarning chiqishlari; Bilvosita – OAV, tahlil markazlari va mustaqil manbalar orqali;

Anonim – ishonchsiz, mishmishlarga asoslangan ma’lumotlar.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari (OAV) ikki tomonlama xususiyatga ega: ular jamiyatni ma’rifatli qilish va demokratik ishtirokni kuchaytirish imkonini bersa-da, ba’zan elita manfaatlariga xizmat qilib, manipulyativ vositaga aylanishi mumkin. Shunga qaramay, OAV siyosiy kommunikatsiyaning ajralmas qismi bo‘lib, jamoatchilik fikrini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston ham global axborot makonining faol ishtirokchisiga aylangan. Mamlakatda siyosiy kommunikatsiya tizimi “Elektron hukumat to‘g‘risida”, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”, “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida” qonunlar bilan mustahkamlanib, davlat xizmatlarining raqamli transformatsiyasiga huquqiy asos yaratildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda masofaviy ta’limning joriy etilishi, shuningdek “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida” va “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlar siyosiy kommunikatsiyaning yanada rivojlanayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasida siyosiy kommunikatsiya tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. 2017–2021-yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da elektron hukumat tizimini rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, “Litsenziya” portali, notarial xizmatlarni avtomatlashtirish, eksport-import jarayonlarini soddalashtirish, internetdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu jarayon foydalanuvchini markazga qo‘ygan, idoralararo hamkorlikka asoslangan, axborot xavfsizligini ta’minlashni talab qiluvchi yangi kommunikativ yondashuvni shakllantirdi.

**Tahlil va natijalar.** Kommunikatsiya nazariyasining shakllanishi amerikalik sotsiolog Ch. Kulidan boshlanadi. U kommunikatsiyani insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va ma'no uzatish mexanizmi sifatida talqin qilgan. XX asr o'rtalarida G. Lassuell tomonidan ishlab chiqilgan modelga ko'ra, ommaviy kommunikatsiya — bu texnik vositalar orqali auditoriyaga maqsadli ta'sir o'tkazish jarayonidir. Shuning uchun ham siyosiy kommunikatsiya zamonaviy siyosiy jarayonlarning ajralmas qismi sanaladi.

M.N. Grachev va A.I. Solovev kabi olimlar siyosiy kommunikatsiyani hokimiyat subyektlari o'rtasidagi axborot almashinuvi, siyosiy maqsadli ma'lumotlarni uzatish jarayoni sifatida tavsiflaydi. U siyosiy hayotda axborotning faqat uzatilishi emas, balki u orqali jamoatchilik fikriga, hissiyotga va qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatishni ham o'z ichiga oladi.

G'arb olimlari, jumladan, V. Lippman esa “xalq hamma narsani biluvchi fuqaro” degan afsonani tanqid qilib, siyosiy qarorlarni asosan malakali elita qabul qilishi lozimligini ta'kidlaydi. U “stereotip” tushunchasini ilgari surib, axborot vositalarining fuqarolar siyosiy ongiga ta'sirini ochib bergan. Bugungi saylovlarda, jumladan, 2024-yil 27-oktabrdagi saylovlarda SJBAT (Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimi) va SYAER (Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati) kabi tizimlardan foydalanilishi siyosiy kommunikatsiyaning amaliy rivojlanishidan dalolat beradi.

Umuman olganda, siyosiy kommunikatsiya — bu axborot uzatish orqali siyosiy jarayonlarni tartibga soluvchi,

jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi, demokratik boshqaruvni ta'minlovchi ijtimoiy mexanizm bo'lib, uning rivoji axborot texnologiyalari va fuqarolik jamiyatining yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir.

**Xulosa va takliflar.** Siyosiy kommunikatsiya masalasi O'zbekiston olimlari tomonidan ham chuqur ilmiy o'rganilmoqda. Jumladan, jurnalist va siyosatshunos Sh. Qudratxo'jayevning tadqiqotida siyosiy kommunikatsiyalarning fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi roli keng tahlil qilingan. Muallif fuqarolik va axborot jamiyati tushunchalarining evolyusiyasi, rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati modellari, axborot-kommunikatsiya vositalarining siyosiy jarayonlardagi o'rni hamda OAVning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi funksiyalarini chuqur yoritadi. Tadqiqotda, shuningdek, “fuqaro–jamiyat–davlat” o'rtasidagi o'zaro kommunikatsiyalarni ta'minlashda “elektron hukumat” tizimining ahamiyati, axborot urushlarining siyosiy jarayonlarga ta'siri, OAV va media tizimining fuqarolik madaniyatini shakllantirishdagi o'rni ilmiy asosda tahlil etilgan.

Umuman olganda, Sh. Qudratxo'jayevning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, siyosiy kommunikatsiya fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishi, siyosiy madaniyat va ongni yuksaltirish, hamda davlat bilan jamiyat o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni – “O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida.”
2. O'zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to'g'risida” Qonuni. – Toshkent, 2015.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida” Qonuni. – Toshkent, 2007.
4. Qudratxo'jayev Sh. Siyosiy kommunikatsiyalar fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
5. Jo'rayev T. Siyosiy fanlar nazariyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
8. Xayrullaev M.M. Siyosiy tafakkur va siyosiy madaniyatning shakllanishi masalalari. – Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari jamiyati”, 2015.